

“YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI” STRATEGIYASIDA RESPUBLIKANI KELGUSIDA RIVOJLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Qodirova Laziza Tohirovna

Osiyo Xalqaro Universiteti MM7-PP- 23-guruh magistranti

www.doi.org/10.5281/zenodo.10477363

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlar, taraqqiyot va rivojlanishlar yo‘lidagi barcha tamoyillarga asoslangan holda olib borilayotgan ustuvor yo‘nalishlar haqida batafsil so‘z yuriritiladi.

Kalit so‘zlar: Strategiya, taraqqiyot, tamoyil, konseptual, me‘zon, islohot, takomillashtirish, modernizatsiya, demokratik, ijtimoiy-siyosiy, fuqorolik tizimi, obyektlashtirish, sub’ekt, ma‘muriy, jinoiy.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, uni tubdan rivojlanishiga hamda har qanday sohada jahon mamlakatlari bilan tenglasha oladigan darajada yuksalish yo‘lida dadil qadamlar tashlanmoqda desak, xato bolmaydi. Aynan mana shu maqsadda ko‘plab ishlar olib borilmoqda, rivojlanish yo‘lida ko‘plab qarorlar hamda farmonlar qabul qilinmoqda. Har yili Muhtaram Yurtboshimiz qarorlari va olib borilayotgann islohotlar natijasida bir qancha samaradorlik ko‘yfitsentlari yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda. Aynan taraqqiylashtirish ishlarini olib borish va bir me‘yorda ushlab davom ettirish uchun yillar kesimida turli xil strategiyalar rejalashtirilmoqda va mana shu rivojlanish diagrammalari yuqorisamaradorlikni o‘zida yaqqol namoyon etmoqda.

Ushbu ishlarning ilk na‘munasi 2017 – 2021 yillardagi yuqori samaradorlik kasb etgan “Harakatlar strategiyasi” da namoyon bo‘ldi deb bemalol ayta olamiz. Yuqoridagi loyiha muddati tugadi va unda rejalashtirilgan islohotlarning barchasi ko‘ngildagidek natija kasb etdi. Endi mana shu jarayon karvoni uzilib qolmasligi uchun yana bir dastur ishlab chiqildi, bu barchamizga ma‘lum bo‘lgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi “ deb atalgan tizimdir.

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” yetti muhim dasturni o‘zida jo etadi va bu 2022-2026 yillar uchun mo‘ljallangan. Ushbu srategiyada inson demokratik huquqlarining himoya qilinishi, davlat organlarining qay darajada ishlashi va ularning ochiqlik hamda shaffoflik siyosati, iqtisodiyotni rivojlantirish, moliya sohasiga yangiliklar kiritish, tez tibbiy yordam xizmatlariga alohida e‘tibor berish kabi xizmatlarni amalga oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Barchamizga ma‘lumki ham iqtisodiy tomonlama, ham ijtimoiy tomonlama modernizatsiyalashgan davlat, yuksalgan davlatlar sirasiga kira oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son qaroriga ko‘ra ishlab chiqilgan ushbu strategiya yeti muhim ustuvor yo‘nalishga ega. Muhtaram prezidentimiz ushbu qarorni qabul qilish jarayonida shunday nutq so‘zlaydi:

“Xalqimiz talablarini inobatga olgan holda, biz Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqdik va saylov jarayonida uni o‘ziga xos umumxalq muhokamasidan o‘tkazdik. Bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi ba davomiyligini ta‘minlash maqsadida, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi” sari degan tamoyil asosiy g‘oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo‘yildi”, deydi Prezident. “Bu ishlarning barchasi albatta xalqimizning baxtli va faravon hayoti uchun bag‘ishlanadi, yurtimizning obro‘-e‘tibori uchun, jahon mamlakatlari orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Xalqimizni mana shunday darajaga olib kelish, mamlakatimizni eng rivojlangan davlatlar

qatoriga olib chiqish, jahon xalqlari orasida bayrog'imizni hammaga tanitish kabi yuksak sharaflı vazifalarnı o'z ichiga oladi. Millat bu darajaga yetishi uchun albattta xalq va uning orasidagi jonkuyar rahbarlarning xizmati muhim rol o'ynaydi, nafaqat rahbarlarning balki, yetti yoshdan yetmish yoshgachaa bo'lgan har bir inson bunga mas'ul va haqlidir.

Endi ushbu yo'nalishlarga to'xtalamiz:

Qayd etilganidek ushbu strategiya yetti yo'nalishdan iborat:

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqorolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.
2. Mamlakatimizda Adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.
3. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash.
4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.
5. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.
6. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.
7. Mamlakatimiz xavfsizligi va Mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Ushbu ustuvor rivojlanish strategiyasi yo'nalishlarini tahlil qilamiz:

Birinchi yo'nalish fuqorolarning erkin holdagi jamiyatini rivojlantirish va xalqparvar davlat yaratishga qaratilgan ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Buning uchun kelajakda mamlakat vazifalarining yuqori qismi markazlardan hududlarga o'tkaziladi. Har bir guzar va mahallalarda hokim yordamchisi lavozimlari tashkil qilinadi. Tumanlarda byujetlar qo'shimcha manbalar bilan ta'minlanib, mahallalarda alohida mahalla a'zolari uchun jamg'armalar tashkil etiladi. Markaziy idoralar transformatsiya qilinib, ixcham va samarali boshqaruv tizimi amalga oshiriladi. Bu boshqaruv idoralari esa optimalashtiriladi. Ushbu yo'nalish haqida muhtaram prezidentimiz shunday deydi: "Rahbar xalqqa yuk bo'lmasligi, aksincha, xalqning yukini yelkasiga olishi zarur", deydi o'z nutqining birida. Bu fikrlardan anglashiladiki, o'z ishiga sodiq va vafoli rahbar millat boyligi, u millat uchun uning taraqqiyoti uchun juda kerakli insondir.

Ushbu yo'nalish haqida muhtaram prezidentimiz shunday deydi: "Rahbar xalqqa yuk bo'lmasligi, aksincha, xalqning yukini yelkasiga olishi zarur ", deydi o'z nutqining birida. Bu fikrlardan anglashiladiki, o'z ishiga sodiq va vafoli rahbar millat boyligi, u millat uchun uning taraqqiyoti uchun juda kerakli insondir.

Ikkinchi ustuvor yo'nalish bu xalq, mamlakat orasida adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr qimmatini ta'minlash vazifalarini qamrab oladi. Xuddi yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish uchun sudlov tizimlari advokatura institutlari, huquq targ'ibot organlarining ahamiyatli vositalari takomillashtiriladi. Ushbu yo'nalishga e'tibor qaratadigan bo'lsak qonun ustuvorligiga tayangan holda ishlab chiqilganiniga e'tibor beramiz. Bunda Tadbirkorlar ishlarini rivojlantirish, korrupsiyaga qarsh ikurashish, korrupsiya o'chog'ini batamom millat ongidan chiqarib tashlashga e'tibor qaratilgan.

Uchinchi yo'nalish bu mamlakatda iqtisodiy rivojlanishni yuksak cho'qqiga olib chiqish hamda har bir jon boshiga alohida hisoblaganda daromadni yuqori ko'rsatkich kasb etishi bilan bog'liqdir. Prezidentimiz ta'kidlaydiki 2030-yilga borib ushbu ko'rsatkich diagrammasini jahon miqyosidagi aholisining o'rtacha daromadi bilan tenglashtirish va undanda kelgusi yillarda jahon mamlakatlari orasida raqobatga tusha olishni maqsad qilinganligini ta'kidlaydi.

To'rtinchi yo'nalish bu sifatli ta'lim - tarbiyaga qaratilgan. Millat farzandi qanchalik yaxshi ta'lim olsa davlat shuncha rivoj topadi. Chunki kelajak yoshlarimiz qo'lida deb bejizga aytilmagan. Agar e'tibor qaratadigan bo'lsak ta'lim sohasida juda ham ko'p yangiliklar amalga oshirilmoqda. Bularga yaqqol misol o'qituvchilarning oylik maoshini yuqori ko'rsatkichda oshirish va bundan tashqari ta'lim jarayoni uchun ta'lim maskanlarini barcha moddiy texnik vositalar bilan ta'minlash, chekka qishloqlarga kadr yetkazilishi kabi islohotlarni ko'rishimiz mumkin.

Beshinchi islohot bu ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirish. Bu yo'nalishni rivojlantirish uchun "Yangi O'zbekiston ma'rifatli jamiyati" konsepsiyasi amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Bunda Madaniyat va ma'rifatni, san'atni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega ekanligi e'tiborga olingan.

Oltinchi yo'nalish mamlakatimizdagi global muammolarning milliy va mintaqaviy hududlardagi yechimini topishiga qaratilgan. Masalan bulardan eng dolzarbini oladigan bo'lsak, Orol dengizi muammosini hal qilishga qaratilgan. Ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish bu insoniyat uchun eng muhim ahamiyat kasb etishi inobatga olingan.

Yettinchi yo'nalish bu mamlakatdagi tinchlik va milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ustuvor tartibotdir. Bunda qurolli kuchlarning qudratini oshirish va ularning jangovor tayyorgarligi uchun barcha vaziyatlarga zamin yaratishdan iboratdir. Zero, mamlakat xavfsizligi va yurt tinchligi barcha narsadan ustundir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha rivojlanish yo'lidagi islohotlar albatta xalqimiz va uning taraqqiyoti uchun, jannatmakon yurtimizning gullab yashnashi uchungina xizmat qiladi. Har bir sohada professional bo'lish, jahonning rivojlangan mamlakatlari sirasiga kirish va o'z o'rniga ega bo'lishdek maqsadni o'z oldimizga qo'ygan holda harakatdan to'xtamasligimiz kerak.

"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" Yangi O'zbekistonda yangi imkoniyatlar, yangi islohotlar, yangi taraqqiyotga olib boruvchi imkoneshiklarini ochadi desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

References:

1. lex.uz rasmiy sayti.
2. My.gov.uz. rasmiy sayti.
3. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 29.01.2022-y.
4. Qalampir.uz rasmiy sayti.